

HUQUQNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO STANDARTLARNING AHAMIYATI

Axmedova Farzona Faxriddinovna

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi 1-bosqich 33-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada “Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar” fanining qiziqarli mavzularidan biri huquqni muhofaza qilish sohasida xalqaro normativ hujjatlar va xorijiy tajribalarning ahamiyati borasida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: huquqni muhofaza qiluvchi organlar, konstitutsiyaviy huquqlar va erkinliklar, milliy qonunchilik, xalqaro huquq, xalqaro standartlar, “Miranda qoidasi”.

Аннотация:

В данной статье рассматривается одна из интересных тем дисциплины "суд и правоохранительные органы" - размышления о значении международных нормативных актов и зарубежного опыта в правоохранительной сфере.

Ключевые понятия: правоохранительные органы, конституционные права и свободы, национальное законодательство, международное право, международные стандарты, “правило Миранды”.

Abstract:

In this article, one of the interesting topics of the science of “judicial and law enforcement agencies” is the importance of international regulatory documents and foreign experiments in the field of law enforcement.

Key concepts: law enforcement agencies, constitutional rights and freedoms, national legislation, international law, international standards, “Miranda rule”.

Ma’lumki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Zero fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya etish, qonuniylikni ta’minlash huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifalari hisoblanadi. Shu bois ham bugungi kunda mamlakatimizda bu



masalada juda katta islohotlar amalga oshirildi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi, qonunchilik bazasi takomillashtirildi. Biz ushbu maqola orqali “Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar” fanining qiziqarli mavzularidan biri huquqni muhofaza qilish sohasida xalqaro normativ hujjatlar va xorijiy tajribalar xususida fikr yuritmoqchimiz.

Avvalo, huquqni muhofaza qilish organlari deganda mamlakatda qonun ustuvorligini, jamoat tartibi va xavfsizligini, fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, buzilgan huquqlarni tiklash, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarni ochish, tezkor-qidiruv, ma’muriy va jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshiruvchi hamda aholiga huquqiy yordam ko’rsatuvchi, zarur hollarda davlat majburlovi choralari qo’llash vakolatiga ega bo’lgan davlat organlari tushunish lozim.

Davlat va huquq nazariyasidan ma’lumki, albatta har bitta davlatning o’z mentaliteti, urf-odat va an’analari, rivojlanish tarixi va boshqa ko’plab omillar ta’sirida ko’p yillar davomida shakllangan milliy qonunchilik tizimi bo’ladi. Biroq milliy qonunchilikning ham shakllanishi va rivojlanib borishida xalqaro huquq va standartlar anchagina salmoqli ta’sir ko’rsatadi. Qolaversa, davlatlarning xalqaro munosabatlarida xalqaro huquq va standartlarni qabul qilmaslik, inobatga olmaslikning iloji ham yo’q.

Shu bois ham xalqaro huquq va standartlar butun dunyo davlatlari tomonidan e’tirof qilinadigan hamda rioya etiladigan nufuzli yuridik tizimdir. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida ham xalqaro huquq, uning umume’tirof etilgan prinsiplari ustuvorligi tan olinishi mustahkamlangan. Agar e’tibor qaratilsa, deyarli barcha qonun hujjatlarimizda “agar xalqaro shartnoma yoki kelishuvlarda o’zgacha hol nazarda tutilgan bo’lsa, xalqaro shartnoma yoki kelishuv qoidalari qo’llaniladi” degan normalarning kiritilishi, milliy qonunchiligimizdan xalqaro huquq normalari ustun turishini ko’rsatib beradi.

O’zbekiston Respublikasi xalqaro huquq prinsiplari va qoidalarining mamlakat ichki huquqidan ustunligini qat’iy e’lon qiladi. Ayni chog’da, xalqaro huquqni mukammal o’rganish hamda bilish huquqshunoslar, siyosatshunoslar hamda barcha ijtimoiy fan sohasidagi mutaxassislarning birinchi darajali vazifasidir. Davlatimizning xalqaro-maydonga chiqishi va xalqaro munosabatlarning to’laqonli ishtirokchisiga aylanishi tegishli xalqaro-huquqiy institutlar va mezonlarni puxta o’zlashtirib olinishini talab qiladi.



Bugungi kunda O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha 100ga yaqin xalqaro shartnomalarni, shu jumladan, YXHT shartnomalarini imzolagan, BMTning inson huquqlari bo‘yicha oltita shartnomaviy organlarida ishtirok etadi va ularga 30ga yaqin milliy ma‘ruzalar taqdim qilingan. O‘zbekiston Hukumati BMTning ustaviga oid, shartnomaviy organlari, hamda Inson huquqlari bo‘yicha Kengashning maxsus protsedura va mexanizmlari bilan muloqot olib boradi.

Xalqaro standart deganda ko‘plab mamlakatlar mutaxassislarining roziliklari asosida ishlab chiqilgan va dunyo miqyosida tan olingan tashkilot tomonidan tasdiqlangan va nashr etilgan hujjatdir¹. Xalqaro standartlarni deklaratsiyalar, xalqaro shartnomalar (shartnomalar va konvensiyalar), xalqaro tashkilotlarning qarorlari, ko‘rsatmalar shaklida uchratish mumkin.

Ilmiy adabiyotlardan ma‘lumki, odil sudlovga oid xalqaro standartlar xalqaro huquqda “Miranda qoidasi”, “Bangalor prinsiplari”, “Sudyalar mavqei to‘g‘risida Yevropa Xartiyasi”, “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro bill”, “Milan qoidalari”, “Yuvenal yustitsiya”, “Karakas deklaratsiyasi”, “Pekin qoidalari”, “Ar-Riyod prinsiplari”, “Bankok deklaratsiyasi”, “Vena deklaratsiyasi”, “Insoniylik mezonlari” deb o‘ziga xos tarzda nomlanib, ularning barchasi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning asosini tashkil etadi va sudlar faoliyatida muhim o‘rin tutadi.²

O‘rni kelganda xalqaro standartlardan biri sanalmish “Miranda qoidasi” xususida aytib o‘tsak, ushbu qoida Amerika Qo‘shma Shtatlarida yuzaga kelgan yuridik norma bo‘lib, unga ko‘ra, jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi shaxsni so‘roq qilishdan oldin unga protsessual huquqlari tushuntirilishi kerak. Mazkur tamoyil 1966-yildagi Amerika Qo‘shma Shtatlari Oliy sudi qaroridan kelib chiqadi. Miranda qoidasidan ko‘zlangan maqsad shaxsga o‘z-o‘ziga qarshi guvohlik bermaslik huquqini berish bo‘lgan. Ushbu qoidaning vujudga kelishining ham o‘z tarixi bor. O‘sha vaqtda Arizona shtati politsiyasi Ernesto Mirandani odam o‘g‘irlash va nomusga tegish jinoyatlarini sodir etishda ayblaydi. Politsiya binosida ikki soatlik so‘roqdan keyin Miranda o‘z aybiga iqrar bo‘ladi va keyinchalik sudlanadi. Ushbu jinoyat ishi yuzasidan Mirandaning advokati shikoyat keltiradi hamda AQSh Oliy sudi bundan buyon politsiyachilar shaxsni ushlab chog‘ida shartli ravishda nom olgan “Miranda ogohlantiruvini”ni o‘qib eshittirishlarini talab qiladi. Bu qoida ushlab turish sabablarini, ko‘rsatuv berishni rad etish, ushlangan shaxs bergan

¹ Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar: Darslik / Mualliflar jamoasi – T.: TDYU nashriyoti, 2022. 282-bet.

² Qarang o‘sha betda.



ko'rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini hamda davlat hisobidan himoyachini taklif etish kabi huquqlarni o'z ichiga oladi. Ushbu qoida hech kim o'ziga qarshi ko'rsatuv berishga majbur emasligi huquqini ta'minlab berdi. Shu paytdan boshlab, ushlangan shaxsga uning huquqlari o'qib eshittirilishidan oldin olingan har qanday ma'lumot nomaqbul dalil ekani belgilab qo'yildi. So'roq davomida qo'lga kiritilgan har qanday ma'lumot, agar u qo'lga olingan shaxsga uning haq-huquqlari tushuntirilishidan avval olingan bo'lsa, noqonuniy olingan dalil deb hisoblanadigan bo'lgan. Bunda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin bo'ldi. Keyinchalik ko'plab davlatlar o'z millik qonunchiliklarida Miranda qoidasini joriy qilishdi. 2023 yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham 28-moddasida ushbu qoidaning o'z aksini topganligini ko'rish mumkin, ya'ni "...Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi. ... Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin"³.

Milliy qonunchiligimizda mazkur qoidaning konstitutsion tarzda muhtakmlab qo'yilishi ham mamlakatimizda inson qadriga, inson huquqlariga qaratilayotgan e'tiborning nechog'lik muhim ekanligini anglashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.
2. Rustamboyev M.H., Tuxtasheva U. A. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. (Ikkinchi jildi.). T.«ILM ZIYO», 2011.
3. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar: Darslik / Mualliflar jamoasi – T.: TDYU nashriyoti, 2022.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y.

